BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AXMEDOV RUFAT PIRMATOVICH

MUHAMMAD ZAKARIYO ROZIY AXLOQIY QARASHLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

09.00.03 – Falsafa tarixi

FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 101(55) (091)

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on philosophical sciences

Axmedov Rufat Pirmatovich
Muhammad Zakariyo Roziy axloqiy qarashlarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati.....5

Ахмедов Руфат Пирматович
Значение моральных взглядов Мухаммада Закариё ар-Рази в воспитании молодёжи. 23

Akhmedov Rufat Pirmatovich
Significance of Muhammad Zakariya al-Razi’s Ethical Views in Upbringing of Youth.....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of works published.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AXMEDOV RUFAT PIRMATOVICH

MUHAMMAD ZAKARIYO ROZIY AXLOQIY QARASHLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

09.00.03 – Falsafa tarixi

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2. PhD/Fal1281 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Muzaffarov Firuz Davronovich** falsafa fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	***Navruzova Gulchixra Nigmatovna*** falsafa fanlari doktori, professor
	Madaeva Shaxnoza Omonullayevna falsafa fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “28” noyabr soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 200118, Buxoro tumani, Galaosiyo shahri, Ibn Sino ko‘chasi 1-uy (Xalqaro tadqiqotlar markazi), Tel.: (99865) 221-29-14; faks: (99865) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0/1150- raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “16” noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “16” noyabr dagi 45 raqamli reyestr bayonnomasi.)

B.B. Namozov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

A.Z.Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, falsafa fanlari doktori, professor

N.O. Safarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborot almashinuvi va madaniy ta’sirlarning kengayishi sharoitida yoshlarning axloqiy pozitsiyasini shakllantirish, insonning bilim va imkoniyatlari ortishi oqibatida uning xatti-harakatlarida oqilonalik, me’yor va adolatni qaror toptirish ahamiyati ortib bormoqda. Bunday o‘zgarishlar avvalo umuminsoniy va axloqiy qadriyatlarning qadrsizlanishi, shaxsda begonalashuvining kuchayishi, yoshlarning o‘tkinchi manfaatlar ta’sirida qaror qabul qilishi, o‘z istaklarini tanqidiy baholashi va xatti-harakatlari oqibatlarini anglashiga doir masalalar insoniyatning tarixiy axloqiy tajribasiga murojaat qilish zaruratini kuchaytiradi. Shu jihatdan Muhammad Zakariyo Roziyning aqlga tayanish, nafsni tarbiyalash haqidagi qarashlarini va insonning axloqiy kamoloti to‘g‘risidagi hamda ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida mutafakkirlarning ma’naviy-axloqiy merosidagi insonparvarlik g‘oyalari, ularning falsafiy tafakkur taraqqiyoti va jahon tamaddunida tutgan o‘rnini aniqlash, inson qadr-qimmati, shaxsning o‘zini anglashi hamda ma’naviy kamolotga erishishiga oid qarashlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Tarixiy tajribada shakllangan axloqiy qadriyatlar, insonning o‘z qadrini anglashi bilan boshqalar oldidagi mas’uliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda ma’naviy kamolotning omillarini aniqlash yoshlar tarbiyasida mustaqil axloqiy tanlov hamda o‘zini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, Muhammad Zakariyo Roziyning axloqiy merosida aqlning xulq-atvorni boshqarishdagi mavqei, nafs tarbiyasi, mo‘tadillik va baxt haqidagi qarashlarning o‘zaro aloqadorligini aniqlash, mutafakkir axloqiy ta’limotining o‘ziga xos xususiyatlarini asl manbalar asosida yoritish, uning inson kamolotiga oid g‘oyalarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini tarixiy-falsafiy tahlil orqali asoslash zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish, uni amalga oshirishda buyuk allomalarning ilmiy-nazariy merosini falsafiy idrok qilish va uni targ‘ib etish, yosh avlodni fan tarixida yuqori mavqega ega ajdodlarimizning ezgu an’analari ruhida tarbiyalash bo‘yicha islohotlar izchil davom ettirilmoqda. “Birinchi Renessans davrida yashab faoliyat ko‘rsatgan Ibn Sino, Abu Sahl al-Masihiy, Sharafiddin ibn Abdulloh Ilohiy singari ulug‘ mutafakkirlarimizning amaliy tibbiyot, kasallikning oldini olish va inson ruhiyatiga bag‘ishlangan o‘nlab asarlari, Abu Nasr Forobiy, Husayn Voiz Koshifiyning nazariy tibbiyotga oid, Abu Mansur Qamariyning tashxislash sohasidagi ilmiy merosi, Abu Rayhon Beruniy, Najibuddin Samarqandiyning farmatsevtika va dorishunoslik yo‘nalishidagi benazir asarlari o‘tmishda ham, hozirgi paytda ham dunyo tibbiyotida olamshumul kashfiyotlarga zamin bo‘lib xizmat qilmoqda”[1]. Bu borada Sharq falsafiy tafakkurining vakili Muhammad Zakariyo Roziy axloqiy qarashlarining yoshlarda bilimga intilish, mulohaza yuritishi o‘z xulqiga mas’uliyat bilan yondashish va me’yorni saqlashdagi ahamiyatini asoslash muhim bo‘lmoqda.

[1] Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. Тошкент: “O‘zbekiston”, 2024. – Б.179.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 21-apreldagi PF-68-son “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi 466-son “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori hamda sohaga oid boshqa me’yoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Abu Bakr ar-Roziyning boy ilmiy, falsafiy va tibbiy merosini o‘rganish hamda undan zamonaviy ilm-fanda foydalanish masalalari jahon mamlakatlari olimlari tomonidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, jahon olimlaridan Majit Faxri mutafakkirning metafizik tizimi va islom falsafasidagi o‘rnini, Lyuis Magner esa uning tibbiy-empirik metodlari va klinik kuzatuvlarini baholagan. Ar-Roziyning tibbiyot va farmakologiyaga oid qo‘lyozmalari Fuat Sezgin tomonidan manbashunoslik jihatdan tasniflangan bo‘lsa, ratsionalistik falsafiy qarashlari Piter Grof tadqiqotlarida tahlil qilingan. Sayyid Husayn Nasr, Latif Muhammad al-Abd uning “At-tibb ar-ruhoniy” asarining falsafiy-axloqiy mohiyatini ochib berishgan. Shuningdek, Piter Adamson, Abdu Rahmon Badaviy, Len Evan Gudman tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan[2].

[2] Majid Fakhry, A History of Islamic Philosophy: Third Edition, Columbia University Press (2004), p. 98.; Magner, Lois N. A History of Medicine. New York: M. Dekker, 1992, p. 140.; Fuat Sezgin (1970). Ar-Razi. In: Geschichte des arabischen Schrifttums Bd. III: Medizin – Pharmazie – Zoologie – Tierheilkunde = History of the Arabic literature Vol. III: Medicine – Pharmacology – Veterinary Medicine. Leiden: E. J. Brill. pp. 276, 283.; Groff, Peter (2007). Islamic Philosophy A-Z. Edinburgh: Edinburgh University Press Ltd. p. 41.; Seyyed Hossein Nasr, and Mehdi Amin Razavi, An Anthology of Philosophy in Persia, vol. 1, (New York: Oxford University Press, 1999), p. 353.; Abdul Latif Muhammad al-Abd (1978). Al-ṭibb al-rūḥānī li Abū Bakr al-Rāzī. Cairo: Maktabat al-Nahḍa al-Miṣriyya. P. 280.; Adamson, Peter (2016). "Atomismus bei ar-Rāzī". In Buchheim, Thomas; Meißner, David; Wachsmann, Nora

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlaridan G.Ashurov, A.Bogoutdinov, M.Dinorshoev, M.Mirboboev, M.Isoev va N.Kulmatov o‘z ishlarida ar-Roziyning “Ruhiy tibbiyot” asarining falsafiy-axloqiy mohiyatini ochib berganlar. Shuningdek, Xoliq Mirzozoda, X.Naqqosh, M.Osimiy, M.Rajabov, F.Sirojev, A.Shamolov va A.Sharipov tadqiqotlarida ar-Roziyning Sharq Renessansi davridagi ilm-fan va falsafa taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini, uning axloqiy qarashlarining Ibn Misqavayh kabi mutafakkirlar bilan umumiylik va farqli jihatlarini tizimli o‘rganganlar[3].

O‘zbekiston faylasuf va manbashunos olimlari tomonidan Abu Bakr ar-Roziy ma’naviy-axloqiy ta’limotining vorisiylik aloqalari maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan bo‘lsa-da, bu borada muhim nazariy poydevor yaratilgan. Xususan, akademik Ibrohim Mo‘minov o‘z ishlarida mutafakkirning ratsionalistik qarashlari va ilmiy metodiga to‘xtalgan bo‘lsa, Muhammad Boltaev ar-Roziyning bilish nazariyasi hamda mantiqqa oid xulosalarini qiyosiy tahlilga tortgan. Shu bilan birga, M.Usmonov islom evolyusiyasi kontekstida olimning ijtimoiy qarashlarini baholagan. G.Navro‘zova va M.Qodirov esa Sharq mutafakkirlarining axloqiy asarlarini tahlil qilish jarayonida ar-Roziy ta’limoti haqida konseptual tasavvur hosil qiluvchi ilmiy xulosalarni ilgari surganlar. H.Salomova, Sh.Madayevaning falsafiy tadqiqotlari esa umumiy falsafiy-metodologik masalalarni o‘rganishda nazariy manba sifatida ahamiyat kasb etishi mumkin. Shuningdek, M.K.Safarov Abu Bakr ar-Roziy ilmiy merosining falsafiy tahlili (“Tibb ur-ruhoniy” va “Siyrat ul-falsafa” asarlari misolida) nomli tadqiqotida asosiy e’tibor mutafakkirning axloqiy-falsafiy qarashlari, falsafiy turmush tarzi va ularning zamonaviy yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatiga qaratilgan[4].

(eds.). Sōma: Körperkonzepte und körperliche Existenz in der antiken Philosophie und Literatur. Archiv für Begriffsgeschichte, Sonderheft 13. Hamburg: Meiner. pp. 345–360.; Badawi, Abdurrahman, Min Tarlkh al-Ilhad fi al-Islam Islamica, Vol. II, Cairo, 1945, pp. 198–228.; Goodman, Lenn E. (1975). “Razi's Myth of the Fall of the Soul: Its Function in His Philosophy”. In Hourani, G. (ed.). Essays in Islamic Philosophy and Science. Albany, NY: State University of New York Press. pp. 25–40.

[3] Ашуров Г. Философские взгляды Носира Хисрава. – Душанбе, 1965; Богоутдинов А.М. Очерки по истории таджикской философии. – Сталинабад, 1960; Диноршоев М. Аз таърихи фалсафаи точ,ик. – Душанбе, 1988; Диноршоев М., Мирбобоев М.К. Абубакр ар-Рази и его “Духовная медицина” // Абу Бакр ар-Рази. Духовная медицина. – Душанбе: Ирфон, 1990. – С.3-22; Диноршоев М. Плюралистическая философия Абу Бакра ар-Рази. – Душанбе, 2013; Исоев М. Общность и отличие этики Рази и Мискавайха//Известия Академии наук Республики Таджикистан. 1992., №4. – С.46-55; Кулматов Н. Сирати ахлокии Абубакри Рози//Садои Шарк. 1988. №11; Мирзозода Х. Таърихи адабиёти точик. – Душанбе, 1987; Неъматов Н. Давлати Сомониён. – Душанбе, 1989; Точикон. -Душанбе, 1993; Осимй М. Алломаи машрикзамин//Садои Шарк. 1988. №8. – С.76-80; Раджабов М. Фирдавсй ва замони хозира. – Душанбе, 1976; Сироджов Ф. Сайрн хикмати Юнон ба Шарк//Садои Шарк. 1980. №3. – С.68-70; Шамолов А.А. Абу Бакр ар-Рази. Духовная медицина//Известия АН Тадж. ССР. Серия: философия, экономика и правоведение. 1991. №3. – С. 40-45; Шарипов А. Отношение А. Рози к религии//Известия Академии наук Республики Таджикистан. 1986. № 3. – С.24-31; Закариёи Розй. Мунтахаби осор. – Душанбе, 1989.

[4] Мўминов И.М. Ўзбекистондаги табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар. – Тошкент.: Фан, – 1999.; Болтаев М.Н. Вопросы гносеологии и логики в произведениях Ибн Сины и его школы. Душанбе: Ирфон, 1961.; Усмонов М.А Основные этапы эволюции ислама. Автореф. дис… д.филос.н. - Москва, 1978.; Наврўзова Г. Н. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий меъроси. – Тошкент: “Фан”, 2021.; Муҳаммаджон Қодиров. Насриддин Тусийнинг “Ахлоқи Носирий” асари ва унинг таҳлили. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2013. – 124 б. Мадаева Ш.О. Мусулмон ҳуқуқшунослиги ва унинг тарихий идентификацион хусусиятлари // Марказий Осиё ренессанси журнали. Тошкент, 2021. № 1. – Б. 16-29.; Мадаева Ш.О. Мусулмон ҳуқуқшунослиги ва унинг тарихий идентификацион хусусиятлари // Марказий Осиё ренессанси журнали. Тошкент, 2021. № 1. – Б. 16-29 Сафаров М.К. Абу Бакр ар-Розий илмий меросининг

Ushbu tadqiqotlarning dissertatsiya tadqiqoti uchun yuqori ilmiy ahamiyatini e’tirof etgan holda aytish mumkinki, Muhammad Zakariyo Roziy axloqiy qarashlarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatiga, ma’naviy yangilanish jarayonlariga ko‘rsatayotgan ta’sirini aniqlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot amalga oshirilmagan. Mazkur dissertatsiyada esa mutafakkirning aql, nafs tarbiyasi, me’yor, baxt va o‘zini tanqidiy baholash haqidagi qarashlarini o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish hamda ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini tarixiy-falsafiy jihatdan asoslashga diqqat qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band “Yangi O‘zbekistonda ma’rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari” (2022-2026 yy.) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Muhammad Zakariyo Roziy ma’naviy-axloqiy qarashlarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Muhammad Zakariyo Roziy axloqiy qarashlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan tarixiy sharoit, ilmiy-madaniy muhit va g‘oyaviy manbalarni aniqlash;

“Ruhiy tabobat” asarida axloqiy kamolotning ratsional asoslari hamda aqlning inson xulq-atvorini yo‘naltirishdagi o‘rnini asoslab berish;

Muhammad Zakariyo Roziy axloqiy qarashlarining mazmuni, asosiy tamoyillari va o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

mutafakkir axloqiy ta’limotida baxt tushunchasining mohiyatini, aql, ishq va muhabbat munosabatini tahlil etish;

nafs tarbiyasi, o‘zini tanqidiy baholash va axloqiy odatlarni shakllantirish haqidagi qarashlarning inson kamolotidagi o‘rnini asoslash;

Muhammad Zakariyo Roziy axloqiy merosining Yangi O‘zbekistonda yoshlar ma’naviy kamolotidagi ahamiyatini aniqlash hamda undan tarbiyaviy faoliyatda foydalanishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Muhammad Zakariyo Roziyning falsafiy merosi, u haqda olib borilgan tadqiqotlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Zakariyo Roziyning “Tibbi Ruhoniy” asarida yoshlar tarbiyasiga oid g‘oyalar, axloqiy qarashlarining shakllanish asoslari, inson kamolotiga oid g‘oyalarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, komparativistik tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, dialektik, diskursiv tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Muhammad Zakariyo Roziyning “At-Tibb ar-ruhoniy” (“Ruhiy tabobat”) asarida barkamol inson siymosini tavsiflovchi mehr-muruvvat, rostgo‘ylik, adolat, hayo, iffat, rahm-shafqat, saxovat va poklik fazilatlari hamda kamolotga to‘sqinlik

---

фалсафий таҳлили («Тибб ур-руҳоний» ва «Сийрат ул-фалсафа» асарлари мисолида): фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2025. – 50 б..

qiluvchi kibr, takabburlik, o‘ziga achinish, mastlik va yolg‘onchilik illatlari o‘rtasidagi tafovut insonning o‘z xatti-harakatlari sabab va oqibatlarini anglashi, istaklarini aql bilan boshqarishi hamda o‘zini tanqidiy baholashi mezonlari asosida aniqlashtirilgan;

Zakariyo Roziyning qalb axloqini o‘zini anglash va tanqidiy baholash orqali isloh qilish, insonning ichki dunyosidagi oqilona intilishlar bilan nafsoniy mayllar o‘rtasidagi ziddiyatlarni ochib berish, ustoz–shogird munosabatlarida ibrat va xolis tanqid asosida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, qat’iy intizom va ilmga rag‘batni shakllantirish hamda nafsni bosqichma-bosqich tarbiyalashga oid qarashlarining aql, iroda va axloqiy odat birligida namoyon bo‘luvchi mohiyati ochib berilgan;

“Ruhiy tabobat” va “Falsafiy yo‘l” asarlari asosida Muhammad Zakariyo Roziy ma’naviy-axloqiy merosida ilmga insonning o‘zini va borliqni anglash mezoni sifatida qarash, kamolotga erishishda axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ma’naviy yuksalish bilan me’yor va mo‘tadillikka asoslangan jismoniy rivojlanish uyg‘unligi, o‘z xatti-harakatlarining sabab va oqibatlarini tanqidiy tahlil etish hamda aqliy mushohada qonunlariga tayanishning ongli axloqiy tanlovni ta’minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan;

Muhammad Zakariyo Roziyning inson qadr-qimmati, aqlning xulq-atvorni boshqaruvchi va mas’uliyatli tanlovni belgilovchi mavqei, ta’lim va tarbiyaning ibrat, nasihat hamda amaliy mashqqa tayanuvchi xususiyatlari haqidagi qarashlari asosida ma’naviy tarbiyaning ruhiy poklanish, o‘zini anglash va o‘zgartirish, ijtimoiy faollik, o‘z xulqini xolis baholash, umumiy manfaatga mas’uliyatli munosabat kabi mezonlarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat**:**

Muhammad Zakariyo Roziy axloqiy qarashlarida insonlarning bir-biri taqdiriga befarqligini bartaraf etish, o‘zgarishlarga ongli va mas’uliyatli munosabat bildirish hamda ijtimoiy munosabatlarda loqayd bo‘lmaslikka undovchi o‘zaro yordam, xayrixohlik va umumiy manfaatga daxldorlik g‘oyalarining zamonaviy jamiyatda fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashdagi ahamiyati ochib berilgan;

mutafakkirning nafs tarbiyasiga doir istaklarni aql bilan boshqarish, me’yorni saqlash va irodani muntazam mashq orqali mustahkamlash haqidagi qarashlari asosida yoshlarning o‘z xatti-harakatlarini kuzatishi, kamchiliklarini anglashi va odatlarini bosqichma-bosqich o‘zgartirishiga qaratilgan, o‘zini xolis baholash va xulqiy mas’uliyatni rivojlantirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan;

yoshlar bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyatda mutafakkirning o‘zini tanqidiy baholash, asosli e’tirozni qabul qilish va shaxsiy manfaatni boshqalarga zarar yetkazmaslik talabi bilan muvofiqlashtirish haqidagi g‘oyalaridan axloqiy tanlov madaniyatini shakllantirish, muloqotda o‘zaro hurmatni mustahkamlash hamda xatti-harakat oqibatlari uchun mas’uliyatni anglashni rivojlantirishda foydalanish zarurati asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar,

statistik ma’lumotlar, birlamchi manbalar va qo‘lyozma asarlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan ilmiy umumlashma va xulosalardan buyuk ajdodlarimizning ilmiy an’analarini munosib davom ettirishda, Muhammad Zakariyo Roziy merosini boshqa mutafakkirlar ta’limotlari bilan qiyosiy o‘rganishda, tabiiy-ilmiy bilimlarni rivojlantirishda, yoshlarni ma’naviy-axloqiy etib tarbiyalashga oid faoliyatni olib borishda, “barkamol inson” haqidagi g‘oyalarning genezisi evolyutsiyasini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida, madaniy-ma’rifiy muassasalar, mahalla, oila markazlari, intellektual salohiyatni o‘stirish bilan shug‘ullanuvchi yoshlar ijodiy markazlari faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini takomillashtirishda, bolalar va o‘smirlarni ma’naviy kamol toptirishga yo‘naltirilgan buyuk mutafakkirlar, ajdodlarimizning ma’naviy jasorati, qahramonliklari to‘g‘risidagi noshirlik mahsulotlarini kitob va elektron shakllarda nashr etishda, shuningdek, ta’lim muassasalari, mahallalar hamda ma’naviyat va ma’rifat markazlarining yoshlar bilan ishlash faoliyatida, “Falsafa”, “Axloqshunoslik”, “Islom falsafasi”, fanlaridan darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Muhammad Zakariyo Roziy axloqiy qarashlarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini tadqiq etish asosida olingan natijalardan:

Muhammad Zakariyo Roziyning “At-Tibb ar-ruhoniy” (“Ruhiy tabobat”) asarida barkamol inson siymosini tavsiflovchi mehr-muruvvat, rostgo‘ylik, adolat, hayo, iffat, rahm-shafqat, saxovat va poklik fazilatlari hamda kamolotga to‘sqinlik qiluvchi kibr, takabburlik, o‘ziga achinish, mastlik va yolg‘onchilik illatlari o‘rtasidagi tafovut insonning o‘z xatti-harakatlari sabab va oqibatlarini anglashi, istaklarini aql bilan boshqarishi hamda o‘zini tanqidiy baholashi mezonlari bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy takliflardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan IL-4821091548-sonli “Zamonaviy tahdid va da’vatlar sharoitida O‘zbekiston va Belarus yoshlari ongi shakllanishining ijtimoiy-madaniy va aksiologik asoslari” (2022-2024 yy) mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha vazifalarini bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2026-yil 9-oktyabrdagi 04/11-32675-son ma’lumotnomasi). Natijada, Roziy axloqiy merosining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini aniqlash va jamiyat ma’naviy hayotini yangilashdagi imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qilgan;

Zakariyo Roziyning qalb axloqini o‘zini anglash va tanqidiy baholash orqali isloh qilish, insonning ichki dunyosidagi oqilona intilishlar bilan nafsoniy mayllar

oʻrtasidagi ziddiyatlarni ochib berish, ustoz–shogird munosabatlarida ibrat va xolis tanqid asosida yoshlarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalash, qatʼiy intizom va ilmga ragʻbatni shakllantirish hamda nafsni bosqichma-bosqich tarbiyalashga oid qarashlari, ilmiy-nazariy xulosalaridan Oʻzbekiston mahallalari uyushmasining fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish borasidagi dasturiy faoliyatida hamda Oʻzbekiston yoshlar ittifoqining yillik ish rejalari va dasturlarida belgilangan loyihalarni amalga oshirishda foydalanilgan (Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi huzuridagi Mahalla akademiyasining 2025-yil 7-martdagi 01-03/06-son hamda Oʻzbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy kengashining 2025-yil 26-fevraldagi 04-13/178-son maʼlumotnomalari). Natijada, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yosh avlod maʼnaviy olamini boyitish, mafkuraviy immunitetni oshirishda maʼrifiy dunyoqarash hamda falsafiy mushohadasini kengaytirishga hamda fuqarolar yigʻinlarining mushtarak manfaatlarini ifodalash, ularning davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan oʻzaro hamkorligini rivojlantirishga xizmat qilgan;

“Ruhiy tabobat” va “Falsafiy yoʻl” asarlari asosida Muhammad Zakariyo Roziy maʼnaviy-axloqiy merosida ilmga insonning oʻzini va borliqni anglash mezoni sifatida qarash, kamolotga erishishda axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan maʼnaviy yuksalish bilan meʼyor va moʻtadillikka asoslangan jismoniy rivojlanish uygʻunligi, oʻz xatti-harakatlarining sabab va oqibatlarini tanqidiy tahlil etish hamda aqliy mushohada qonunlariga tayanishning ongli axloqiy tanlovni taʼminlashdagi ahamiyatiga oid xulosalaridan Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazining 2024-yilda maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturi VI yoʻnalishining 42-bandida belgilangan buyuk allomalar va maʼrifatparvar jadidlar merosini oʻrganish hamda targʻib qilishga doir tadbirlarni tashkil etish va oʻtkazishda hamda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining tasavvuf ilmiy maktabi oʻquv dasturlarini ishlab chiqishda, seminarlarni tashkil etishda foydalanilgan (Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-maʼnaviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 7-martdagi 10/110-son hamda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2026-yil 14-oktyabrdagi 02/512-son maʼlumotnomalari). Natijada, Muhammad Zakariyo Roziy axloqiy qarashlarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini ochib berishga hamda yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish hamda ularni yot gʻoyalar va axborot xurujlari taʼsiridan himoya qilishga xizmat qilgan.

Muhammad Zakariyo Roziyning inson qadr-qimmati, aqlning xulq-atvorni boshqaruvchi va masʼuliyatli tanlovni belgilovchi mavqei, taʼlim va tarbiyaning ibrat, nasihat hamda amaliy mashqqa tayanuvchi xususiyatlari haqidagi qarashlari asosida maʼnaviy tarbiyaning ruhiy poklanish, oʻzini anglash va oʻzgartirish, ijtimoiy faollik, oʻz xulqini xolis baholash, umumiy manfaatga masʼuliyatli munosabat kabi mezonlarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan Buxoro viloyati teleradiokanalining “Assalom Buxoro” va “Sakkizinchi moʻjiza” koʻrsatuvlarining 2022-yil yanvar–fevral oylaridagi sonlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Buxoro

viloyati teleradiokanali” davlat muassasasining 2025-yil 18-fevraldagi 72-son ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu materiallar yosh avlodning ma’naviy olamini boyitish, mafkuraviy immunitetini oshirish hamda ilm-ma’rifatning jamiyat farovonligidagi o‘rnini anglashiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 135 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Muhammad Zakariyo Roziy axloqiy qarashlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda mutafakkir dunyoqarashining shakllanish tarixiy sharoitlari, g‘oyaviy manbalari hamda hayoti va ilmiy-ma’naviy merosining axloqiy ta’limoti bilan bog‘liqligi ochib berilgan.

Dissertatsiyada Muhammad Zakariyo Roziy yashagan davrda ko‘plab davlatlar xalifalik tomonidan bosib olinganligi, arablar bosqini oqibatida islom dini tarqalishi, xususiy mulkning rivojlanishi, dehqonlarning yersiz qolishi, buning oqibatida ularning feodal va davlat amaldorlariga qarshi kurashlarning davom etishi hamda bu kurash oqibatda xalifalik va ularning hokimiyatiga qarshi kurashga aylangani qayd etilgan. Arab xalifaligi bosqini va ularning boshqaruv siyosatiga qarshi ozodlik harakatlari VIII asr boshlarida O‘rta Osiyo va Eron hududlarida boshlangan. Diniy mazmunga ega bo‘lgan shunday qo‘zg‘olonlardan biri Xarris ibn Surayj qo‘zg‘olonidir. U Ummaviylar sulolasiga qarshi qaratilgan edi. Abumuslim, Shorik, Ibn Shayx, Sumbod Mug‘, Muqanna, Qarmatiylar va boshqa ko‘plab isyonlar arab xalifaligining davlat qudratini buzishda o‘z rolini o‘ynadi[5].

Dissertant fikricha, Zakariyo Roziy yashagan tarixiy davrda bir qancha ilm-fan sohalari matematika, kimyo, tibbiyot, geografiya, tarix, falsafa, adabiyot, astronomiya va boshqalar rivojlandi. O‘rta Osiyo aniq fanlarni rivojlantirishning eng yirik markazlaridan biri hisoblangan. Bu davrda tarixda Majusiy nomi bilan tanilgan

[5] Хайруллаев М.М. Мировоззрение Фараби и его значение в истории философии. - Ташкент, 1967. – С. 103.

matematik, astronom va buyuk geograf al-Xorazmiy yashab ijod etgan. U rivojlanib kelayotgan mavjud tuzum taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bu davrdagi taraqqiyot jarayonining asosiy omillaridan biri bo‘ldi. Tahlil qilinayotgan davrda ijtimoiy fanlar rivojlanganligini Abu Bakr Narshaxiy, Abuja’far Tabariy, Ibn Qutayba va Abuabdulloh Muhammad Xorazmiy ilmiy ma’naviy meroslari asosida ko‘rish mumkin. Adabiyot sohasida Abuabdulloh Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Abu Ali Ibn Sino, Abulhusayn Buxoriy, Abbos Samarqandiy va boshqalar sermahsul ijod qildilar va bular Zakariyo Roziyning zamondoshlari hisoblanadi. Ushbu davr bilimlari va ilm-fanining o‘ziga xos xususiyati shundaki, sahnaga kelgan ko‘plab olimlar o‘z davrining turli fan sohalarida ijod qilishgan va bu bir qator qomusiy olimlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Abubakr ar-Roziy hayoti davrini o‘rganish natijalarini sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta’kidlash kerakki, aynan o‘sha davrda fanning turli sohalarini rivojlantirgan, fanning turli sohalarida – tibbiyot, matematika, astronomiya, geografiya, falsafa, tarix, kimyo va boshqa sohalarda mashhur asarlarning paydo bo‘lishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan ko‘plab taniqli olimlar yashagan va ijod qilgan.

Zakariyo Roziy islom tafakkurining “oltin davri” deb atalgan davrda yashab ijod qilgan. Ushbu davrda arab-musulmon falsafasi keng rivojlana boshladi. Islom falsafasida uning paydo bo‘lishidanoq butun bir qator oqim va yo‘nalishlar vujudga kelgan. Bu davrdagi tafakkurning boyligi va xilma-xilligi dindorlikdan tashqari faol falsafiy izlanishlar - ijtimoiy va umumbashariy idealni transislomiy izlanishdan tortib, ateistik qarashlarni ochiq asoslashgacha bo‘lgan faol falsafiy izlanishlar orqali amalga oshirildi.

Dissertant fikricha, ko‘pgina tarixchilar islom tafakkurining “oltin davri” taraqqiyotining cho‘qqisini al-Ma’mun nomi bilan bog‘liqligini qayd etishadi. Ba’zi manbalarda ta’kidlanishicha, Ma’munning san’atga homiyligi shu darajada bo‘lganki, 830 yilda Vizantiya ustidan g‘alaba qozonib, u o‘lponni pul, zargarlik buyumlari yoki har qanday tovarlar bilan emas, balki faylasuflar asarlari bilan to‘lashni talab qilgan[6]. Buning natijada musulmon olami ziyolilari oldida falsafiy tafakkurning cheksiz ufqlari ochildi. Bundan tashqari tahlil qilinayotgan ushbu davrda ko‘pgina erkin fikrlovchi faylasuflar Livan, Suriya, Falastin, Misrga kelib joylashdilar. Ularning shogirdlari va avlodlari Bag‘dodda ilk tarjimonlar maktabini yaratdilar. O‘sha paytda “Donolik uyi” ni nasroniy Abu Zakariya Yuhanna ibn Miskaveyh boshqargan[7].

Dissertatsiyada Zakariyo Roziy falsafiy qarashlarining shakllanishiga Abul Abbos al-Eronshahriy g‘oyalari favqulodda kuchli ta’sir ko‘rsatgani aytiladi. Eron faylasufi Sayyid Husayn Nasrning fikricha, “An’anaviy islom doiralarida islom olamida birinchi bo‘lib paydo bo‘lgan faylasuf Eronshahriy ismli fors bo‘lib, u falsafani SHarqqa olib kirishga harakat qilgan, deb hisoblashadi”[8]. Eronshahriy bir vaqtning o‘zida ilm-fan, din va falsafa bilan shug‘ullangan olim bo‘lib, u o‘z

[6] Qarang: Мюллер А. История ислама. От доисламской истории арабов до падения династии Аббасидов. – М., 2004. Кн.1-2; Грюнебаум Г.Э. Классический ислам: очерк истории. – М., 1986.
[7] Игнатенко А.А. В поисках счастья. – М., 1989. – С.243.
[8] Сеййед Хусейн Наср. Философы Ислама: Авиценна (Ибн Сина), Ас-Сухраврди, Ибн Араби. / Пер. с анг., предис. и комм. Р.Псху. - М.; 2014. – С.17.

falsafasiga nasroniylik, zardushtiylikni ayniqsa, manixeylik haqidagi chuqur bilim olib keldi. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, Eronshahriy oʻz dinini yaratish uchun barcha mavjud dinlarga qarshi isyon koʻtargan[9].

Dissertant fikricha, Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo Ibn Yahyo ar-Roziy hijriy 251-yilning 1-shabonida (865-yil 1-sentyabr) oʻsha davrda ilmiy va madaniy markazlardan biri boʻlgan Tehron yaqinida joylashgan Ray shahrida tugʻilgan[10]. Yevropa sharqshunosi Anri Korbin "Islom falsafasi tarixi" kitobida "Muhammad Ibn Zakariyo Roziy 864-yilda Ray shahrida (zamonaviy Tehrondan 12 km.) tavallud topgan... Biz uning kelib chiqishini ta'kidlash uchun uni Reses (Lotin manbalarida shunday koʻrinadi) deb nomlaymiz (Ray – Raga). "Avesto", qadimgi yunon tarixchilarining Regi) va uni boshqa koʻplab "roziylar"dan (Rhea aholisidan) ajratib koʻrsatish uchun"[11] deya qayd etadi.

Mutafakkir boshlangʻich ta'limni katta bilimga ega boʻlgan otasidan olgan. Abu Bakr ar-Roziy matematika, astronomiya, ritorika va boshqa fanlarni bilishda alohida gʻayrat koʻrsatar ekan, oxir-oqibat tibbiyot va kimyoga qiziqib qoldi. Oʻrta asr mualliflarining fikriga koʻra, alloma oʻziga xos xotira va aql-zakovatga ega boʻlib, shu tufayli u oʻz ustozlaridan oʻqigan yoki eshitgan hamma narsani yodlagan. YOshligidan u tajriba qilishni yaxshi koʻrardi. Alloma kimyoviy tajriba oʻtkazish vaqtida, zaharli gazning chiqishi bilan reaksiya sodir boʻldi va u qattiq zaharlandi. Aksariyat tadqiqotchilarning fikricha, bu voqea Roziyni tibbiyotga oid kitoblarni oʻqishga undagan. U yangi bilimlar olish maqsadida Xorazm, Samarqand, Xoʻjand, Gʻazna kabi shaharlar boʻylab sayohat qilgan. Bu erda u falsafa, metafizika, she'riyat va alkimyoni oʻrganib, juda keng qamrovli ta'lim oldi.

Dissertant fikricha, ar-Roziy asarlarining toʻliq roʻyxati birinchi marta qomusiy olim Beruniy tomonidan tuzilgan. Uning roʻyxatiga koʻra, alloma asarlarining umumiy soni 184[12] tani tashkil qiladi. Boshqa manbalarda esa Roziyning asarlari 123[13]ta ekanligi koʻrsatiladi.

An-Nadim ar-Roziy asarlarini Beruniy kabi toʻliq jildda sanab oʻtmagan, ammo u koʻrsatgan kitoblarning ba'zilari ikkinchisining roʻyxatida yoʻq. Ibn Abu Usayba boshqa mualliflarda mavjud boʻlmagan ma'lumotlarni ham keltiradi. U Roziyning shoir ham boʻlganligini yozadi va uning arab tilida ikkita baytini keltiradi[14]. Abu Usaybiy Roziy haqida eng toʻliq va batafsil ma'lumot beradi va u tuzgan asarlari roʻyxatida Abu Bakr Roziyning 238 asarining nomi bor va eng toʻliq variantdir[15].

Mutafakkirning ilmiy-nazariy izlanishlari uning uchun hayot iboralarining kaliti inson ekanligini, dunyoning barcha savollar va sirlar insonda jamlanganligini aniq koʻrsatib turibdi.Inson oʻzini bilmasdan, anglamasdan, atrofidagi narsa haqida hech narsani tushuna olmaydi. SHunga asoslanib, ar-Roziy oʻzining asosiy shiori

[9] Qarang: Беруни Абу Райхан. Избранные произведения. Геодезия / Пер. П.Г.Булгакова. – Ташкент, 1966. Т.3. – С.94-97

[10] Диноршоев М. Плюралистическая философия Абу Бакра ар-Рази. -Душанбе, 2013. – С.5.

[11] Корбэн Анри. История исламской философии. Пер. с франц. и примечания А. Кузнецова. - Теҳрон, 1962. – С.70.

[12] Диноршоев М. Плюралистическая философия Абу Бакра ар-Рази. -Душанбе, 2013. – С. 64.

[13] Олимов К., Аскардаев К. Абӯбакр Закарияи Розӣ – Донишманди чаҳоншумул. – С. 3; Комилӣ А. Зиндагиномаи М.З.Розӣ. – С.44.

[14] Усайби ибн Аби. Уйун ал-анба' фи табакат ал-атибба. – Бейрут, 1377.

[15] Усайби ибн Аби. Уйун ал-анба' фи табакат ал-атибба. – Бейрут, 1377.

sifatida inson o‘zini, o‘z muammolarini oxirigacha ochib, koinotning eng chuqur sirlariga kirib borishini nazarda tutgan.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, islom sivilizatsiyasi turli xalqlar va madaniyatlar bilan hamkorlik qilib, ilm-fan, falsafa, tibbiyot va ijtimoiy hayot sohalarida ulkan yutuqlarga erishgan buyuk sivilizatsiya sifatida namoyon bo‘ldi. Uning bag‘rikengligi va ilmiy merosga ochiqligi natijasida Abu Bakir ar-Roziy kabi qomusiy olimlar etishib chiqdi hamda yaratilgan ilmiy-madaniy boyliklar keyingi davlatlar, jumladan Saljuqiylar va Usmoniylar tomonidan davom ettirildi. SHu tariqa, islom sivilizatsiyasi nafaqat o‘z davrining taraqqiyotiga, balki butun insoniyat tarixi va madaniy xotirasining boyishiga katta hissa qo‘shdi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Muhammad Zakariyo Roziy axloqiy ta’limotining falsafiy mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlanadi. Unda “Ruhiy tabobat”dagi axloqiy kamolotning ratsional asoslari, fazilat va illatlarni baholash mezonlari hamda baxt kategoriyasining mazmuni ochib berilgan.

Dissertant fikricha, “Tibbi Ruhoniy” nafaqat falsafiy, ma’rifiy-axloqiy asar, shu bilan birga ta’lim va tarbiyaning muhim asarlaridan biri bo‘lib, fan tarixida muhim o‘rin tutadi. Asar mavzusi inson tarbiyasi uchun belgilansa, ustoz va shogird, ustoz va murabbiy o‘rtasidagi munosabatlarni ochib berish masalasi Zakariyo Roziyning diqqat markazida turadi. Muallif inson olamini ikki katta guruhga bo‘ladi – biri ilm va hikmat jihatidan oldinda bo‘lgan olim va muallimlar guruhi bo‘lsa, ikkinchisi esa o‘z hayotiy tajribalariga ega bo‘lmagan shogird, o‘quvchilardir.

“Tibbi Ruhoniy” asari yigirma bobdan iborat. Har bir bo‘lim hayotning asosiy ustunlariga bag‘ishlangan. Asarning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, muallif yomon axloqiy ustunlarini ochish va qoralashga ko‘proq e’tibor bergan. Allomaning uslubi shunday tafakkurdan oziqlangandirki, yomon axloqni tanqid qilish go‘zal axloqni madh etish bilan barobardir, chunki har bir shaxs u yoki bu yomon yo‘ldan voz kechib, undan uzoqlashsa, go‘zal axloq girdobiga tushib qoladi[16].

“Tibbi Ruhoniy” asarida Roziy “Boyad zikr namud, ki parvardigori mutaol aqlro ba inson ato namud va odamzod ba tavassuti on ba sarafroziyu buzurgi noil gardid. Mahz ba vasilai on (Aql) az manofei hozira va oyanda bahramand gardida, ba shoyantarii chize, ki dar chavhari af’oli mo vuchud dorad, merasem. Guzashta az in ba kumaki on chavhari aslro daryoft menamoem, zero ki aql behtarii to‘hfai xudovandi buda, ba mo qudratu sudmandi mebaxshad[17]”, deya yozadi. Ya’ni, Alloh taolo bizga aql ne’matini berdi va inson u bilan buyuklik va oliylikka etishdi va biz dunyo va oxirat manfaatlariga u bilan etamiz. Bizdagi Allohning eng manfaatli va eng foydali ne’mati aqldir. Biz Aql yordamida tili bo‘lmagan hayvonlardan ustun bo‘lib ularga egalik qilamiz, biz hayvonlarni o‘zimizga bo‘ysundirdik va ularni o‘zimizga va ularga manfaatli bo‘ladigan ishlarga yo‘naltirdik. Darajamizni ko‘taradigan va hayotimizni chiroyli, go‘zal qiladigan narsani aql bilan idrok qildik, u bilan maqsad murodimizga etamiz.

[16] Cahid Şenel, “İslâm Ahlâk Felsefesi Literatürü Açısından Et-Tıbbü’r-Rûhânî Geleneğinden Söz Edilebilir mi?”, İslâm Ahlâk Literatürü Ekoller ve Problemler içinde, ed. Ömer Türker, Kübra Bilgin Tiryaki, Ankara: Nobel Yayın Dağıtım, 2016, s.200-201.

[17] Закариёи Розӣ. Мунтахаби осор. — Душанбе: Адиб, 1989. – Б. 45.

Roziyning axloqiy falsafasi koʻp jihatdan diniy boʻlmagan asoslarga tayangan axloqiy tushunchalar qatoriga kiradi. Holbuki, Roziyning axloqini din, sezgi va hissiyotga asoslangan axloqiy falsafalar ichida emas, balki aqlga asoslangan axloqiy nazariyalar qatorida koʻrib chiqish kerak. Zotan, faylasuf oʻz qarashlarini dinga asoslab qoʻymaydi, balki odob-axloqning zavq-shavqqa asoslanishiga ham qarshi chiqadi, uni darddan qutulish deb belgilaydi. Uning soʻzlariga koʻra, bu dunyoda zavq deb hisoblangan har bir narsa ogʻriqni yoʻqotishdan boshqa narsa emas. Qolaversa, bu lazzatlar oʻzidan keyin boshqa dardlarning paydo boʻlishiga sabab boʻlganligi bois, hech qachon baxtga olib kelmaydi. Demak, nafsga intilgan jismoniy zavqlarni bostirish kerak[18]. Bunda Roziyning axloq falsafasida lazzat mezon emas, balki oʻlchanishi lozim boʻlgan moddiy hodisadir.

Zakariyo Roziy oʻziga tegishli axloqqa oid eng muhim asari “Tibbu-Ruhoniy”da aql va nafs oʻrtasidagi kurashni boshidan oxirigacha yoritadi. Keyingi boblarda esa, u aqlni inson hayotini yuksaltiruvchi va oʻz maqsadlariga erishishga yordam beruvchi vosita, Alloh taoloning insoniyatga bergan eng ulugʻ neʼmati deb biladi. U orqali insonlar dunyoda ham, oxiratda ham oʻz mohiyatiga xos boʻlgan manfaatlar, ilm va sanʼatlarga ega boʻladilar. SHunday qilib, oxir-oqibat, ular xohlagan narsalariga erishish orqali baxtga erishadilar[19]. Roziy fikricha, insonni baxtga olib keladigan narsa aqldir. Faylasufning aql, ehtiros va zavq-shavq haqidagi bu qarashlarini birgalikda koʻrib chiqsak, u axloqni ehtiros va his-tuygʻu, zavqqa asoslashga qarshi, xulq-atvorga taʼsir qilishda ehtiros va zavqdan koʻra aqlni birinchi oʻringa qoʻyishini aytishimiz mumkin.

Dissertant fikricha, Roziy axloqqa oid asarlar yozgan boshqa islom faylasuflaridan farqli oʻlaroq, u oʻz qarashlarini diniy matnlarga asoslamagan, ulardan iqtibos keltirmagan, asarlariga kiritmaganligini koʻramiz. Ammo shuni ham taʼkidlash kerakki, Roziyning qarashlari va baʼzi iboralari diniy matnlarga maʼlum darajada oʻxshashdir. SHu maʼnoda Roziyning “Inson dunyoning yarmiga ega boʻlsa, nafsi ikkinchi yarmini istaydi”[20] degan soʻzlari Paygʻambarimizning “Kishining bir vodiysi oltinga toʻla boʻlsa, ikkinchi vodiysi oltinga toʻla boʻlishini istaydi...” degan hadislarini eslatadi. Bu va shunga oʻxshash boshqa misollar faylasufning diniy asarlardan baʼzilarining taʼsirida boʻlganini koʻrsatadi. Islom olamida axloqiy tafakkurning paydo boʻlishi va rivojlanishiga Qurʼon va Sunnatning faylasufgacha boʻlgan taʼsiri turlicha boʻlganligi hammaga maʼlum va eʼtirof etilgan haqiqatdir. Qolaversa, Majid Faxriy oʻzining “Ethical Theories in Islam” asarida axloqiy nazariyalarni toʻrt guruhga ajratadi: kitobiy axloq, ilohiyot axloqi, falsafiy axloq va diniy axloq. Keyin u Roziyning axloq haqidagi tushunchasini falsafiy axloq doirasida tahlil etadi.

Islom axloq falsafasining shakllanishida katta rol oʻynagan Abu Bakr Roziyni ijtimoiy islohotchi ham deyish mumkin. Chunki Roziydan oldingi birinchi islom faylasufi hisoblangan Kindiy “Risola fiʼl-hila li Ahzan” nomli asar yozgan boʻlsa-da, bu axloq haqidagi umumiy risola emas, balki qaygʻu va oʻlim qoʻrquvi kabi oʻziga xos masalalarni koʻrib chiqdi. Demak, Roziyni islom falsafasi tarixida

[18] Закариёи Розӣ. Мунтахаби осор. — Душанбе: Адиб, 1989. – Б. 22.
[19] Закариёи Розӣ. Мунтахаби осор. — Душанбе: Адиб, 1989. – Б. 22– Б. 18-19, 20, 33.
[20] Закариёи Розӣ. Мунтахаби осор. — Душанбе: Адиб, 1989. – Б. 26.

birinchi keng qamrovli axloqiy asar yozgan faylasuf deb hisoblashimiz mumkin[21]. Avval aytib o‘tganimizdek, tabobatda aql va tajribaga tayangan Roziy axloq sohasida aql, iroda va tabiatga qaytish deb ifodalanishi mumkin bo‘lgan uchta asosiy tamoyilga tayanadi[22].

Roziyning axloqiy qarashlarida baxt hissiy, qo‘pol qoniqishga asoslangan, vaqtinchalik yoki o‘zgaruvchan narsa emas. U lazzat haqidagi tushunchaga asoslanib, baxtni ikki toifaga ajratadi: diniy va dunyoviy. Biroq, u oxirat borligini qabul qilsa-da, asarlarida keyingi hayot baxtiga emas, balki bu dunyoda insonning rohati va baxtiga e’tibor qaratilgan.

Roziy fikricha, insonning dunyo saodatining asosi aql-idrok, kuchli iroda va mo‘tadillik bo‘lsa, baxtsizlikning asosi esa irodaning zaifligi, hirs, ehtiros, xudbinlik, tutqunlik va haddan oshib ketishdadir. U o‘z asarlarida asosan jismoniy olamdagi saodatga e’tibor qaratadi va oxiratdagi eng oliy saodatni afzal ko‘rish kerak, deb hisoblaydi. Bu g‘oyani “Falsafiy fikr” asarida ochiq-oydin ifodalaydi: “Aqlli odamga zavq-shavqni tashlab, nafsni yengib, o‘zi chidaganidan ham ko‘proq azob-uqubatlarga berilib ketishi yaramaydi. Allohni norozi qilib, oxirat baxtimizga to‘sqinlik qilsak, hali bunday ishni qila olmas edik va bunday hayotni tanlamas edik”[23]. Roziy ta’kidlaganidek, umrning oxiri bilan tugaydigan bu dunyo lazzatlari va iztiroblari vaqtinchalik, o‘lim bo‘lmagan oxirat lazzatlari esa doimiy va boqiy bo‘lganligi sababli, abadiy lazzatdan ko‘ra chekli va o‘tkinchi lazzatni tanlagan kishi aldanib qoladi. Qolaversa, bu dunyo lazzatlari, og‘riqni yo‘qotishdan boshqa narsa bo‘lmagan, insonlarga to‘liq baxt keltira olmaydi, chunki ular nomukammal emas, hatto ular jismoniy lazzatlarning eng qudrati bo‘lsa ham, uning fikriga asoslanib, biz bu dunyoda baxtning vaqtinchalik ekanligini, haqiqatda muhim bo‘lgan narsa bu dunyoda haqiqiy baxt bo‘lishi mumkin emas, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Oxiratga iymon keltirganlar haq din ta’limotiga[24] amal qilganlarida rohat va mangu ne’matlarga erishadilar, degan so‘zlari ham uning nuqtayi nazaridan dalolat beradi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, Zakariyo Roziy inson hayotida aqlni eng oliy ne’mat va komillikka etaklovchi asosiy kuch sifatida baholagan. U inson baxti va ma’naviy kamolotining zamini adolat, haqiqat, fazilat hamda axloqiy me’yorlarga amal qilishda deb hisoblagan. Muhammad Zakariyo Roziy aqlni Alloh taoloning insonga bergan eng yaxshi ne’mati va borliq olami haqidagi bilimning asosi deb bilgan, uning fikricha, aql orqali inson o‘zini hayvonlardan ajratib turadi, hayotini obod qiladi, shuningdek, o‘z mavqeini yuksaltiradi. Mutafakkirning fikricha, insonning baxtga erishishi faqat tashqi moddiy ne’matlar, boylik, huzur-halovat yoki vaqtinchalik lazzatlarga bog‘liq emas, balki uning o‘z nafsoniy istaklarini boshqara olishi, ehtiroslarini aql nazoratiga bo‘ysundirishi, axloqiy fazilatlarini takomillashtirishi va ruhiy muvozanatini saqlay bilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. ar-Roziy falsafasida baxt-saodat masalasi shaxsning axloqiy kamoloti, ruhiy barqarorligi va aqliy yetukligi bilan o‘zaro bog‘liq holda talqin etilishini

[21] Mohaghegh, Mehdi. "Rilzi der Trbb-r RUhiini I", Mecelle-i Dani~gede-i Edebiyat, Tahran 1966, sy. 2, vo1.14, s. 1I3-129.
[22] Keklik N. Felsefenin İlkeleri. – Ankara: İDEF Yayınları, 1996. – S.250.
[23] Kaya M. Filozofca Yaşama // İslam Filozoflarından Felsefe Metinleri. – İstanbul, 1995. – S. 37–47.
[24] er-Râzî E.B. es-Sîretü’l-Felsefiyye / tahk. P. Kraus. – Kahire, 1939. – S. 102

koʻrsatadi. Aynan shu jihatlar mutafakkirning axloqiy-falsafiy merosini insonning maʼnaviy takomillashuvi, shaxsiy masʼuliyati va komil insonni tarbiyalash masalalarini oʻrganishda muhim nazariy asoslardan biriga aylantiradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Muhammad Zakariyo Roziyning inson kamolotiga oid qarashlari va ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati"** deb nomlanib, unda aql, ishq va muhabbat munosabati, nafsni tarbiyalash yoʻllari hamda mutafakkir merosining zamonaviy tarbiyaviy imkoniyatlari ochib berilgan.

